

Tabiiy ofat natijasida zarar ko'rgan flora va faunani qayta tiklash bo'yicha loyihalar tayyorlandi

Joriy yil Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida sodir bo'lgan kuchli shamol va Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi suv ombori yorilishi natijasida yuz bergan suv toshqini nafaqat insonlar, qishloq xo'jaligi ekinlari, chorva mollari, balki flora va faunaga ham jiddiy zarar yetkazdi. Shu boisdan O'zR FA Botanika instituti tomonidan mazkur hududlar tabiiy o'simliklar qoplamida sodir bo'lgan inqiroz darajasini aniqlash va suv eroziyasi oqibatida hosil bo'lgan yalangliklarda innovatsion texnologiyalar yordamida tabiiy o'simlik qoplamini tiklashga qaratilgan "O'zbekistonning tabiiy ofatdan aziyat chekkan rayonlari tabiiy o'simliklar qoplamining inqiroz darajasini baholash va uni qayta tiklashning innovatsion usullarini joriy etish", shuningdek, FA Zoologiya instituti olimlari tomonidan "Buxoro vohasi hayvonot olamiga tabiiy hodisaning yetkazgan zararini tahlil qilish va ularning hayot faoliyatlarini tiklash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish" hamda "Sirdaryo viloyatining tabiiy ofat yuz bergan joylarida anofelogen suv havzalarini aniqlash bo'yicha aholi yashash hududlarini monitoring qilish, ularning hudud aholisi salomatligiga salbiy ta'siri va ularni keskin kamaytirish choralari bashorat qilish" nomli loyihalarni ishlab chiqildi hamda O'zR Innovatsion vazirligi tanlovida ishtirok etish uchun taqdim qilindi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Buxoro viloyati faunasi tarkibida umurtqali hayvonlar 416 ko'proq turdan iborat, shulardan amfibiyalar 2 tur, sudralib yuruvchilar - 32, qushlar - 338, sutemizuvchilar - 44. O'rganish rejalashtirilgan hududda quriqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning alohida muhofazaga olingan 60 turi uchraydi va ularning 6 turi reptiliyalar, 46 turi qushlar, 8 turi sutemizuvchilar bo'lib O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Viloyat chegarasida Qizilqum davlat qo'riqxonasi, "Jayron" Buxoro ixtisoslashgan pitomnigi mavjud. Dengizko'l xalqaro va milliy ahamiyatga ega tabiatni muhofaza qilish zonasi hisoblanadi.

Ushbu loyihalar tabiiy ofatlar natijasida o'simlik va hayvonot olamiga yetgan zararni yangi innovatsion yondoshuvlar asosida qayta tiklashga qaratilgan.